

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SPORT AKADEMIYASI
JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI

HAMRAYEV BOBUR YANGIBOYEVICH

**SPORT TA’LIM MUASSASALARINI MOLIYAVIY TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISH (MODERNIZATSIYA) ASOSIDA
SPORTCHILAR TAYYORLASHNING YANGI METODOLOGIYASINI
YARATISH**

13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi

13.00.07 – Ta’limda menejment (jismoniy tarbiya va sport ta’limi yo‘nalishi)

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical science**

Hamrayev Bobur Yangiboyevich

Sport ta’lim muassasalarini moliyaviy tizimini takomillashtirish (modernizatsiya)
asosida sportchilar tayyorlashning yangi metodologiyasini yaratish 3

Хамраев Бобур Янгибоевич

Создание новой методологии подготовки спортсменов на основе
совершенствования (модернизации) финансовой системы спортивно-
образовательных учреждений 31

Khamrayev Bobur Yangiboyevich

Creation of a new methodology for training athletes based on improving
(modernization) the financial system of sports educational institutions..... 61

E’lon qilingan ilmiy ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works66

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SPORT AKADEMIYASI
JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI

HAMRAYEV BOBUR YANGIBOYEVICH

**SPORT TA’LIM MUASSASALARINI MOLIYAVIY TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISH (MODERNIZATSIYA) ASOSIDA SPORTCHILAR
TAYYORLASHNING YANGI METODOLOGIYASINI YARATISH**

13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi

13.00.07 – Ta’limda menejment (jismoniy tarbiya va sport ta’limi yo‘nalishi)

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Ped9669 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasining www.jtsu.uz va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbarlar:

Matkarimov Rashid Masharipovich
Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Nabiullin Rishat Xismatulovich
iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponetlar:

Allamuratov Shuxratulla Inoyatovich
biologiya fanlari doktori, professor

Ikramov Murod Akramovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.33/01.02.2022.ped.146.01 raqamli ilmiy kengash ning 2025 yil "___" _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19- uy. Tel.: (0-370)-717-17-79,717-27-27, faks: (0-370) 717-17-76, Veb-sayt: www.jtsu.uz, e-mail: jtsu@jtsu.uz, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti A bino 114 auditoriya.

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Metallurglar ko'chasi, 15- uy. Tel.: (0-370)-717-17-79, 717-27-27, faks:(0-370) 717-17-76,

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "___" _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil "___" _____ dagi _____raqamli reestr bayonnomasi)

F.A.Kerimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

D.Y.Egamov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.b.f.d. (PhD)

O.J.Dadabayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Mavzuning dolzarbligi va zarurati: Dunyoning taraqqiyot strategiyasi – sogʻlom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shugʻullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda oʻz irodasi, kuchi va imkoniyatlariga boʻlgan ishonchini mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, shuningdek, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish ishlarini tizimli tashkillashtirish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yoʻnaltirilgan keng koʻlamli islohotlarni amalga oshirishga qaratilmoqda. Hayotga katta umid bilan kirib kelayotgan yoshlarni zararli odatlardan asrash, ularga oʻz qobiliyat va isteʼdodlarini roʻyobga chiqarishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish hamda maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirish borasida muhim va dolzarb muammolardan sanaladi.

Jahonda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, sport orqali aholi salomatligini mustahkamlash, millat genofondini asrash boʻyicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Biroq, yosh avlodni sogʻlom va barkamol etib tarbiyalashda sport taʼlim muassasalarini moliyaviy tizimini modernizatsiyalash asosida sportchilar tayyorlashning yangi metodologiyasini ishlab chiqish, sport sohasiga yoʻnaltirilayotgan mablagʻlarning ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligini taʼminlash dolzarb masala boʻlib qolmoqda. Shuningdek, sport sohasida ijtimoiy yoʻnaltirilgan maqsadlarni roʻyobga chiqarishda davlat budjetidan tashqari manbalarini koʻpaytirish va sohaning budjetga qaramligini qisqartirish zamon talabi boʻlib qolmoqda.

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish ijtimoiy siyosatning muhim yoʻnalishlaridan biri etib belgilangan. Chunki, jismoniy tarbiya va sport aholi salomatligini mustahkamlash, yosh avlodni sogʻlom va barkamol etib tarbiyalash orqali jamiyatda sogʻlom turmush tarzini yaxshilashga imkon yaratmoqda. “Yosh avlodni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shugʻullanishga jalb etish, sport turlari boʻyicha isteʼdodli sportchilarni tanlash, tayyorlash va mahoratini oshirish, kadrlar tayyorlash, sohaga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va xalqaro aloqalarni kengaytirish, moddiy-texnik bazalarni mustahkamlash hamda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish”¹ asosiy vazifalardan etib belgilangan. Shu asosda mamlakatimizga har yili xorijlik yuqori malakali murabbiylarning sport turlari boʻyicha oʻquv-mashgʻulot jarayonlariga jalb etilishi koʻzda tutilmoqda. Amaliyot shuni koʻrsatmoqdaki, sport taʼlim muassasalari oʻqituvchi-trenerlarining amaldagi tizimini takomillashtirish va bu borada moddiy ragʻbatlantirish hamda sohani moliyalashtirishning yangi mexanizmlarini joriy etishga ehtiyoj sezilmoqda. Bu esa hozirgi kunning dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi PF–6099-son “Sogʻlom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022-2026-yillarga

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-apreldagi PQ-201-son “Mahallalarda yoshlarni ommaviy sportga jalb qilishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” Qarori

mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmonlari, 2021-yil 5-noyabrdagi PQ–5280-son "Sport-ta'lim muassasalari faoliyatini 2025-yilgacha rivojlantirish dasturi to'g'risida", 2022-yil 11-apreldagi PQ–201-son "Mahallalarda yoshlarni ommaviy sportga jalb qilishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 6-iyundagi PQ–268-son "Davlat sport-ta'lim muassasalari faoliyatini mutlaqo yangi tizim asosida tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 3-noyabrdagi PQ–414-son "Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari hamda shu sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi: Tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" bilan bog'liq ustuvor yo'nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi: Yurtimizda ijtimoiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida jismoniy tarbiya va sport, jumladan, sportchilar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish, shu bilan birga, respublikamizning barcha hududlarida sportni moliyalashtirish samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy ishlar yo'lga qo'yilgan. Ushbu yo'nalishni o'rganishda mahalliy olimlardan J.A.Akramov, T.S.Usmonxo'jayev, A.N.Normurodov, M.S.Axmatov, F.A.Kerimov, Sh.X.Xonkeldiyev, R.S.Salomov, R.D.Xolmuxamedov, G.K.Rajabov, M.M.Maxmudova, R.M.Matkarimov, I.A.Tursunaliyev, M.X.Mirjamolov, Sh.S.Yadgarova, A.A.Shernayev, U.A.Abduqaxorovlar² yuqori malakali sportchilar, trenerlar, hakamlarni tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish bo'yicha o'quv dasturlari va metodologiyasini yaratish, yangilash, sportchilarning tayyorgarlik jarayoniga ilg'or innovatsion texnologiyalarni joriy etish va yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha ilmiy – uslubiy ishlar olib borishgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi olimlaridan S.I.Loginov, T.N.Galkina,

² Akramov J.A. Обоснование методики контроля и анализа критериев техники бросков мяча в ворота в гандболе: автореферат дис. ... кандидата педагогических наук: 13.00.04.- Москва, 1992.- 23 с.; Usmonxo'jayev T.S., Normurodov A.N. 210 ta harakatli O'yinlar, – Toshkent: ToshDSHI, 2001. – 178 b.; Axmatov M.S. Uzluksiz ta'lim tizimida ommaviy sport-sog'lomlashtirish ishlarini samarali boshqarish / Monografiya. – T., 2005. – 263 b.; Kerimov F.A. Sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar. –Toshkent: —Axborot meros, 2004–145 b.; Хонкелдиев Ш.Х.Физический статус учащейся молодежи. Ташкент – 2018 - 314с.; Salomov R.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. – Toshkent: O'zDJTI, 2015. – 200 b.; Халмухамедов Р.Д, Ражабов Г.К., Махмудова М.М. Методика физической подготовки студентов высших образовательных учреждений на основе использования комплексов "Узбек жанг санъати" Fan-Sportga, - 2020. -№3. – С.2-4.; Matkarimov P.M. Юқори малакали оғир атлетикачиларни кўп йиллик тайёрлашнинг илмий-назарий асослари // DSc фан докторлик диссертацияси. Ch.:2021. – 235 б.; Tursunaliyev I.A.Axiological Approach to Improving the System of Professional Development of Physical Education Instructors / International Journal of Social Science Research and Review. 2023. -№4. –pp. 585-589.; Миржамолов М.Х. Ўзбекистонда паралимпия ҳаракатини ривожлантириш ва захира спортчиларни тайёрлашда илмий ёндашув / Фан-спортга, 2021. -№8. –Б. 25-27.; Yadgarova Sh.S. Analysis of indicators of Physical development of Preschool children // Central Asian Journal of medical and natural sciences. 2023. - pp. 154-157.; Shernayev A.A. Sport-ta'lim muassasalari faoliyatini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish // "Science and Education" Scientific Journal / Impact Factor 3.848 April 2023 / Volume 4 Issue 4. – pp.562-566.; Abduqaxorov U.A. Jismoniy tarbiya va sport muassasalarini moliyalashtirishdagi mavjud muammolar // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2024. №1-son. - B.205-708.

Yu.Pavlenko³ jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni ilmiy-metodik ta'minlash, jismoniy tarbiya va sport sohasida ilmiy tadqiqotlar o'tkazish va sportda yuqori natijalarni qo'lga kiritish bo'yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqishgan. Jismoniy tarbiya va sport sohasida olib boriladigan ilmiy tadqiqot yo'nalishlarini belgilash hamda ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish monitoringini olib borish, jismoniy tarbiya va sport sohasida adabiyotlarga bo'lgan ehtiyojlarni o'rganish, sport muassasalarini o'quv dasturlari va adabiyotlar bilan ta'minlash monitoringini olib borish bo'yicha ham qator tizimli ishlar yo'lga qo'yilgan.

Xorijiy olimlardan C.Hrysomallis, P.Nensel, MG.Perroni, W.Nanzhi, Lin Li, L.Xiao, G.Yang, Y.Zhou, A.D.Samala, I.P.Dewi, L.Mursyida⁴ jismoniy tarbiya va sport sohasidagi kadrlar tayyorlash, jumladan yuqori malakali sportchilarni tayyorlash, tayyorgarlik bosqichlari, sport tayyorgarligida moddiy texnik bazaning ahamiyati, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining jismoniy tarbiya va sport yo'nalishlari bitiruvchilariga jismoniy tarbiya o'qituvchisi va ixtisoslashgan sport turi bo'yicha trener kvalifikatsiyasini berish amaliyotini joriy etish to'g'risida takliflar ishlab chiqishgan.

Shu bilan birga, jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholining jismoniy faolligini oshirishga ko'maklashadigan aniq dasturlarni amaliyotga joriy etish, sport ta'lim muassasalari faoliyatini raqamlashtirish orqali ularning boshqaruvini tubdan isloh qilish, bu borada qo'shimcha shart-sharoitlarni yaratish zarurati sport ta'lim tizimida moliyaviy tizimni modernizatsiya qilish asosida sportchilar tayyorlashning yangi metodologik mazmunini qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi: Dissertatsiya ishi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar institutining ALM-9124104423 raqamli "Talaba-yoshlarning musobaqa faoliyatiga samarali tayyorlashda funksional va jismoniy holatini diagnostika qilish dasturiy ta'minotini yaratish" mavzusidagi ilmiy innovatsion grant loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi sport ta'lim muassasalarini moliyaviy tizimini takomillashtirish asosida sportchilar tayyorlashning yangi metodologiyasini yaratish bo'yicha xulosa va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

"Besh tashabbus olimpiadasi" doirasidagi sport musobaqalarining hududiy va final bosqichlarini tashkil etish va maqsadli moliyalashtirishni joriy etish orqali ommaviy sportni rivojlantirish hamda sport infratuzilmasini takomillashtirish tizimini ishlab chiqish;

³ Логинов С.И. Изменение физической активности и поведения, связанного со здоровьем, студентов Сибирского Севера // Теория и практика физической культуры. – М.: 2002. -№2. – С.43-46.; Галкина Т.Н. Антропометрические и соматотипологические особенности лиц юношеского возраста в Пензенском регионе: дис. канд. мед. наук / Галкина Т.Н. – Пенза, 2008. – 164 с; Павленко Ю. Международный опыт финансирования национальных спортивных федераций по результатам их деятельности // Наука в Олимпийском спорте. –№4. 2017. С.72-84.

⁴Hrysomallis C. Relationship between balance ability, training and sports injury risk // Sport Med. 2007. - 37(6).-pp.547–556.; Nensel P, Perroni MG, Leal Junior ECP. Lesões musculoesqueléticas na temporada de 2006 em atletas de seleção brasileira feminina principal de canoagem velocidade // Acta Ortopédica Brasileira, 2008;16:233 –7 p.; Nanzhi Wang, Lin Li, Linlong Xiao, Guocai Yang, and Yue Zhou. Outcome prediction of dota2 using machine learning methods. In Proceedings of 2018 International Conference on Mathematics and Artificial Intelligence, 2018. - pp. 61–67.; Samala A. D., I. P. Dewi, and L. Mursyida, "E-LabSheet Project" 4Cs-Based Supplementary Media for Flexible Learning: Is it Well Implemented?" International Journal of Online and Biomedical Engineering (iJOE), vol. 19, №. 1, 2023. - pp. 4–20.

aholining barcha qatlamlarini sportga qiziqtirish va ularning jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash bo'yicha ishlab chiqilgan maxsus va ixtiyoriy sport sinovlarini qabul qilish orqali ularning jismoniy faolligini aniqlashni yo'lga qo'yish;

olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarida elektron baholash tizimini joriy etish orqali milliy terma jamoalarga sportchi yetkazib berish metodikasini takomillashtirish;

sport ta'lim muassasalarining moliyaviy va boshqaruv tizimini takomillashtirish (modernizatsiyalash)ga yo'naltirilgan "ERP-Sport" yagona elektron boshqaruv tizimini ishga tushirish va sport sohasini to'liq raqamlashtirish orqali sport-ta'lim muassasalarida sport guruhlarini shakllantirish hamda sohaga ajratilayotgan budjet mablag'laridan samarali foydalanish bo'yicha xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligi huzuridagi sport ta'lim muassasalarining boshqaruv va sport tayyorgarligi jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmetini O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligi huzuridagi sport ta'lim muassasalarining boshqaruv, moliyaviy ta'minoti va sport tayyorgarligi jarayonini tashkil etishga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Ilmiy-uslubiy adabiyotlar, sport ta'lim muassasalariga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarni to'plash va tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, dalillash, pedagogik tajriba va matematik statistika usullari pedagogik tadqiqot davomida qo'llanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

"Besh tashabbus olimpiadasi" doirasidagi musobaqalarning hududiy va final bosqichlarini tashkil etish hamda sportchilar ishtiroki uchun transport, yashash, ovqatlanish xarajatlari va sovg'alarni, shuningdek mahallalarga sport inventarlarini yetkazib berish tizimini ishlab chiqish hisobiga umumta'lim maktablari, oliy va professional ta'lim tizimida o'quvchi, talabalar hamda turli nozologiyasi bor shaxslar bilan ishlash orqali respublikada ommaviy sportni rivojlantirishga erishilgan;

jismoniy tayyorgarlik darajasi sport sinovlari orqali umumta'lim maktablari, oliy va professional ta'lim muassasalarida o'quvchi-talabalar jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash tizimini joriy etish hisobiga ularning jismoniy faolligi oshirilgan;

olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarida ijodiy imtihonlarni adolatli hamda shaffof tashkil qilishda elektron baholash tizimini joriy etish, sport-ta'lim muassasalariga O'zbekiston chempionati va kuboklarida g'olib va sovrindor bo'lgan iqtidorli sportchi-o'quvchilarni tanlab olish hisobiga milliy terma jamoalarga sportchi yetkazib berish va zaxirasini yaratish metodikasi takomillashtirilgan;

"ERP-Sport" tizimini ishga tushirish va sport sohasini to'liq raqamlashtirish orqali sport-ta'lim muassasalarida sport guruhlarini shakllantirish hamda sohaga ajratilayotgan budjet mablag'laridan maqsadli foydalanish, sport ta'lim muassasalariga sportchilarni qabul qilishning minimal, optimal va maksimal miqdorlarini belgilash hamda sportchilar tayyorlash jarayoniga xususiy sektorni jalb etish va ular bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish hisobiga sport ta'lim tizimi takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

sport musobaqalarining hududiy va final bosqichlarida ishtirok etayotgan sportchilar uchun transport, yashash va ovqatlanish xarajatlarini markazlashgan tarzda qoplash tizimi yo'lga qo'yilishi hamda mahallalarga sport inventarlari yetkazib berilishi

natijasida aholining barcha qatlamlari, shu jumladan imkoniyati cheklangan shaxslarning jismoniy rehabilitatsiyasi oshirilgan;

aholining barcha yosh toifalarini qamrab oluvchi jismoniy tayyorgarlik sinovlari tizimi joriy etilib, aholining sport bilan shug'ullanish darajasi oshirilgan hamda maxsus va ixtiyoriy sport sinovlari orqali ularning jismoniy faollik darajasi baholanib, jamiyatda sog'lom turmush tarzini shakllantirishga erishilgan;

olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarida ijodiy imtihonlarni elektron baholash tizimi yo'lga qo'yilib, seleksiya jarayonining shaffofligi ta'minlanishi natijasida milliy terma jamoalarga yuqori mahoratli sportchilarni yetkazib berish amaliyoti joriy etilgan;

sport-ta'lim muassasalari faoliyatini raqamlashtirilishi natijasida "ERP-Sport" tizimi orqali sport guruhlarini optimal variantlarda shakllantirish, sohaga ajratilayotgan budjet mablag'laridan maqsadli foydalanish, sportda boshqaruv jarayonini optimallashtirish, xususiy sektor bilan hamkorlik orqali sport infratuzilmasi va sportchilar tayyorlash tizimi rivojlantirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. O'tkazilgan tadqiqot natijalarining ishonchligini bilish nazariyasi metodologiyasi (bilishning dialektik uslubi) hamda jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi sohasidagi respublikamiz va xorijiy olimlar fikr-mulohazalariga mos kelishi, tadqiqot vazifalariga asoslangan o'zaro bir-birini to'ldirib boradigan tadqiqot uslublarining qo'llanilganligi, rasmiy vakolatli organning ishonchli statistik hisobotlari, shuningdek, tajriba-sinov ishlari hamda olingan natijalarning matematik-statistik tahlil uslublari yordamida qayta ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish va raqamlashtirishni chuqurlashtirish orqali aholining jismoniy faolligini oshirish, infratuzilmani kengaytirish hamda sport musobaqalari va seleksiya tizimlarining samaradorligini baholash va optimallashtirish usullarini aniqlaydi, shuningdek innovatsion moliyaviy instrumentlar va texnologiyalarni joriy etish orqali ommaviy hamda professional sportni rivojlantirishning yangi nazariy-metodik modelini taklif etadi. Bu yondashuv sport ta'lim muassasalarining moliyaviy imkoniyatlarini diversifikatsiya qilish va samaradorlik ko'rsatkichlarini oshirishga, yoshlarni sportga jalb qilish mexanizmlarini ilmiy asoslash orqali ta'lim va sport tizimini uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek, sport siyosatini takomillashtirish, jismoniy tarbiya sohasida innovatsion moliyaviy modellarning konseptual bazasini yaratish, infratuzilma va boshqaruv bo'yicha amaliy tavsiyalarni shakllantirish hamda yuqori mahoratli sportchilar tayyorlashning zamonaviy metodologiyasini yaratish orqali ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yangi yo'nalishlar kiritadi va jamiyat sog'lomlashtirilishi hamda sport sohasining barqaror rivojlanishini ta'minlashga hissa qo'shadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, sport musobaqalarini samarali tashkil etish asosida yoshlarning jismoniy faolligini oshirish uchun amaliy mexanizmlar ishlab chiqish, seleksiya tizimlarini takomillashtirish, sport infratuzilmasini kengaytirish uchun xususiy investitsiyalarni jalb qilish hamda sohani raqamlashtirish hisobiga sport boshqaruv tizimini takomillashtirishga yo'naltirilgan tavsiyalar ishlab chiqish, yoshlarni sportga jalb qilish va natijador sportchilarni

tayyorlash mexanizmlarini moliyaviy instrumentlar orqali modernizatsiyalash evaziga sport ta'lim muassasalarida yuqori mahoratli sportchilar tayyorlashning zamonaviy metodologiyasini yaratish, mahallalarda sport maydonchalari va inshootlarini yaratish orqali aholining sport bilan shug'ullanish imkoniyatlarini oshirish, elektron tizimlardan foydalanish orqali sportchi va trenerlarning natijalarini monitoring qilish mexanizmlarini joriy etish va sportchilar tayyorlashni davlat xususiy sheriklik shartlari asosida amalga oshirish bo'yicha amaliy takliflar tayyorlash bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy etilishi. Sport ta'lim muassasalarini moliyaviy tizimini takomillashtirish (modernizatsiya) asosida sportchilar tayyorlashning yangi metodologiyasini yaratish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

sportchilarni "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasidagi musobaqalarning hududiy va final bosqichlaridagi ishtiroki uchun transport, yashash, ovqatlanish xarajatlari va sovg'alarni markazlashgan tarzda to'lash, mahallalarga yoshlar yetakchilari orqali sport inventarlarini yetkazib berish bo'yicha taklif va tavsiyalar barcha tuman va shahar sport maktablari ta'lim jarayonlariga tatbiq etilgan (Sport vazirligining 16.04.2025-yildagi 02-16/3832-sonli va 17.06.2025-yildagi 03-10/108-sonli ma'lumotnomalari). Natijada, aholining ommaviy sportdagi qamrovi 9 %ga, shu jumladan nozologiyasi bor shaxslarning qamrovi 2,8%ga oshgan. Sport musobaqalari g'olib va sovrindorlari bo'lgan mahallalarda 1 369 ta (474 ta universal, 647 ta stritbol-vorkaut, 248 ta vorkaut) sport maydonchalari qurib berilgan;

aholining barcha qatlamlarini sportga qiziqtirish bo'yicha 7 yoshdan 70 yoshgacha va undan yuqori bo'lgan (11 ta yosh toifasi) umumta'lim maktablari, oliy va professional ta'lim muassasalari o'quvchi-talabalari va aholi uchun ishlab chiqilgan maxsus va ixtiyoriy sport sinovlari orqali ularning jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash tizimini joriy etish bo'yicha taklif va tavsiyalar Respublikadagi barcha darajadagi ta'lim muassasalariga hamda idora va tashkilotlar faoliyatiga tatbiq etilgan (Sport vazirligining 16.04.2025-yildagi 02-16/3832-sonli va 17.06.2025-yildagi 03-10/108-sonli ma'lumotnomalari). Natijada, jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash bo'yicha maxsus va ixtiyoriy sport sinovlarini ta'lim muassasalari (maktab, professional va OTM) tizimida qabul qilish hisobiga o'quvchi va talabalarning jismoniy faolligi 63 %ga oshirilgan (misol uchun, mazkur tizim ilk bor 2024-yildan joriy etilib, 2025-yilning 30-may holatiga 5,1 million o'quvchi va talabalardan sport sinovlari qabul qilingan hamda g'olib va sovrindorlarga 31 448 ta I, II, III darajali ko'krak nishonlari va 4 542 ta sport formalari tarqatilgan);

olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarida ijodiy imtihonlarni adolatli hamda shaffof tashkil qilishda elektron baholash tizimini joriy etish, sport-ta'lim muassasalariga O'zbekiston chempionati va kuboklarida g'olib va sovrindor bo'lgan iqtidorli sportchi-o'quvchilarni tanlab olish bo'yicha taklif va tavsiyalar Respublikadagi olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari hamda boshqa ixtisoslashtirilgan sport ta'lim muassasalari ish yuritish faoliyatiga tatbiq etilgan (Sport vazirligining 16.04.2025-yildagi 02-16/3832-sonli va 17.06.2025-yildagi 03-10/108-sonli ma'lumotnomalari). Natijada, olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarida milliy terma jamoalarga sportchi yetkazib berish ko'rsatkichi 15 % ga o'sgan;

“ERP-Sport” tizimini ishga tushirish va sport sohasini to‘liq raqamlashtirish orqali sport-ta’lim muassasalarida sport guruhlarini shakllantirish hamda sohaga ajratilayotgan budjet mablag‘laridan maqsadli foydalanish, sport ta’lim muassasalariga sportchilarni qabul qilishning minimal, optimal va maksimal miqdorlarini belgilash hamda sportchilar tayyorlash jarayoniga xususiy sektorni jalb etish va ular bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha taklif va tavsiyalar Respublikadagi davlat sport ta’lim muassasalarining ish yuritish faoliyatiga tatbiq etilgan (Sport vazirligining 16.04.2025-yildagi 02-16/3832-sonli va 17.06.2025-yildagi 03-10/108-sonli ma’lumotnomalari). Natijada, sport maktablarida sport bilan shug‘ulanuvchi yoshlar qamrovi 1,7 barobarga oshgan hamda terma jamoalarga olimpiya va paralimpiya sport turlaridan sportchi yetkazib berish 2021-yilga nisbatan 2025-yilda 42 %ga o‘sgan, shuningdek yiliga o‘rtacha sport infratuzilmasiga ajratilayotgan mablag‘larning 10 % yoki 2025-yil uchun nazarda tutilgan mablag‘larning qariyb 30 % aynan xususiy investitsiyalar orqali o‘zlashtirilishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 11 ta ilmiy ishlar, jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 6 ta maqola, shundan 2 tasi xorijiy ilmiy jurnalda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to‘rtta bobdan iborat bo‘lib, jami 128 bet, 23 ta rasm, 5 jadval, xulosalar, amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqotdan olingan natijalarning ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy etilishi, aprobatsiyasi, e’lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Sport ta’lim muassasalari moliyaviy tizimini takomillashtirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida sport ta’lim muassasalari faoliyati va ularning moliyaviy modelini takomillashtirishning nazariy asoslari, xorijiy davlatlarning sport ta’lim tizimida moliyalashtirish tajribasi, sportchilar tayyorgarligini ta’minlashda sport ta’lim muassasalarining moliya tizimini modernizatsiya qilish zaruriyati, respublikamizda sportchilar tayyorlash va sport ta’lim tizimini modernizatsiyalashning me’yoriy-huquqiy asoslari o‘rganilgan.

Sport ta’lim muassasalarining moliyaviy tizimini takomillashtirish bo‘yicha adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, sport sohasi jamiyat taraqqiyotida muhim o‘rin egallaydi. Olimlarning tadqiqotlariga ko‘ra, sportning ommaviy havaskorlik, o‘quv fani sifatidagi sport va yuqori natijalar sporti kabi shakllari mavjud bo‘lib, har biri o‘ziga xos

maqsad va funksiyalarga ega. O‘zbekiston sport sohasini rivojlantirish uchun qator qonun va hujjatlar qabul qilgan bo‘lib, ular orqali sport infratuzilmasini takomillashtirish, yoshlarni sportga keng jalb qilish va xalqaro musobaqalarda yuqori natijalarga erishilgan.

Xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, sportni moliyalashtirish tizimi davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanish bilan birga, xususiy sektor investitsiyalarini jalb etish orqali ham rivojlantiriladi. Masalan, Rossiyada sport sohasi homiylik va reklama daromadlari orqali qo‘llab-quvvatlanadi, Germaniyada esa sport federatsiyalari va klublari mustaqil faoliyat yuritib, davlat bilan hamkorlikda sportni rivojlantirish strategiyalarini amalga oshiradi. Xitoy va Yaponiya tajribasi esa davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, sport infratuzilmasini modernizatsiya qilish va yosh sportchilarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan (R.Matkarimov, K.Ziyadullayev, N.T.To‘xtaboyev) .

O‘zbekistonda sport ta‘lim muassasalarining moliyaviy boshqaruv tizimini takomillashtirish uchun bir qator chora-tadbirlar zarur. Sport infratuzilmasini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish, sportchilar va murabbiylar uchun grant va stipendiyalar joriy etish, davlat-xususiy sheriklik asosida sport maktablarini qo‘llab-quvvatlash, sohada ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlashga qaratilgan samarali boshqaruvni takomillashtirish kabi tashabbuslar bu sohaning barqaror rivojlanishini ta‘minlashi mumkin. Shuningdek, moliyaviy menejment va buxgalteriya tizimini yanada takomillashtirish, sportni targ‘ib qilish hamda ommaviy sport madaniyatini oshirish bo‘yicha kompleks yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot uslublari va uning tashkil etilishi”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotning usullari, uslublarning mazmuni va ulardan foydalanish tartibi, tadqiqot bosqichlari va uni tashkil qilinishi haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Pedagogik tadqiqot sport ta‘lim muassasalarining moliyalashtirish tizimini modernizatsiya qilish va sportchilarni tayyorlash metodologiyasini takomillashtirish bo‘yicha uch bosqichda amalga oshirildi. Tadqiqot bosqichlari 2022-2025 yillar davomida olib borilib, har bir bosqichda turli ilmiy va amaliy tadqiqot usullari qo‘llanildi.

I bosqich: Tadqiqotga tayyorgarlik va dastlabki tahlil (2022-2023 yil). Bu bosqichda mavzuga oid me‘yoriy hujjatlar, ilmiy adabiyotlar, yillik tayyorgarlik dasturlari va statistik ma‘lumotlar qiyosiy tahlil asosida o‘rganildi. Tadqiqotning maqsadi va asosiy yo‘nalishlari belgilandi. Sport ta‘lim muassasalarining moliyaviy tizimini modernizatsiya qilishning ilmiy asoslarini aniqlash, sportchilarni tayyorlash metodologiyasining mavjud holatini o‘rganish, xalqaro tajribalarni o‘rganish va qiyosiy tahlil qilish, ilmiy manbalar va hujjatlarni o‘rganish, me‘yoriy hujjatlar – sport sohasi bo‘yicha qonunlar, davlat dasturlari, sport ta‘lim muassasalarining moliyalashtirish mexanizmlari, tayyorlov dasturlari va rejalar – sport maktablari va akademiyalarining mashg‘ulot rejalarini tahlil qilish, ilmiy adabiyotlar – sport iqtisodiyoti, moliyaviy boshqaruv va sportchilarni tayyorlash bo‘yicha xalqaro ilmiy tadqiqotlarni o‘rganish, statistik ma‘lumotlar – sportchilarning natijalari, moliyaviy resurslar va investitsiyalar bo‘yicha statistik ma‘lumotlarni qiyosiy tahlil qilish, moliyalashtirish tizimi va sportchilar natijalari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash uchun dastlabki tahlillar o‘tkazildi. Sportchilarni tayyorlash bo‘yicha an‘anaviy metodlarning samaradorligi baholandi. Ilmiy manbalarga asoslangan holda innovatsion yondashuvlar shakllantirildi.

II bosqich: Eksperimental tadqiqot va amaliy joriy etish (2023-2024 yil). Ushbu bosqichda yangi metodologiyaning sport natijalariga ta'siri o'rganildi. Eksperimental tadqiqot tashkil etildi. Murabbiylar va sportchilarning faoliyati kuzatildi – yangi metodologiya bo'yicha murabbiylar va sportchilar qanday ishlashi baholandi. Pedagogik kuzatuv va ma'lumot yig'ish asosida sportchilarning jismoniy va psixologik tayyorgarlik ko'rsatkichlari baholandi. Mashg'ulotlar davomida yangi texnologiyalar (biometrik monitoring, sun'iy intellekt) joriy qilindi. Psixologik tayyorgarlik dasturining samaradorligi tahlil qilindi. Yangi metodologiya asosida tayyorlangan sportchilarning natijalari 15-20% ga yaxshilandi. Moliyaviy resurslar diversifikatsiyasi sport natijalariga 10-15% ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Sportchilarning motivatsiyasi va mashg'ulotlarga qatnashish ko'rsatkichi 85% gacha oshdi.


III bosqich: Natijalarni umumlashtirish va ilmiy asoslash (2024-2025 yil). Ushbu bosqichda tadqiqot natijalari umumlashtirildi, ilmiy maqolalar tayyorlandi va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Dissertatsiyaning **“Sportchilar tayyorlashning yangi metodologiyasini zamonaviy tizim modernizatsiyasi asosida pedagogik tajirabada asoslash”** deb nomlangan uchinchi bobida sportchi tayyorlashda sport ta'limi muassasalari moliyaviy tizimini modernizatsiyalashning asosiy mexanizmlari, sportchilar tayyorlash tizimini raqamlashtirilgan model asosida takomillashtirish, sport ta'lim muassasalarida davlat budjeti mablag'lari samaradorligini ta'minlash va ularning moliyaviy ta'minoti ko'rib chiqilgan.

“Besh tashabbus olimpiadasi” doirasidagi musobaqalarning hududiy va final bosqichlarini tashkil etish hamda sportchilar ishtiroki uchun transport, yashash, ovqatlanish xarajatlari va sovg'alarni, shuningdek mahallalarga sport inventarlarini yetkazib berish tizimini ishlab chiqish hisobiga umumta'lim maktablari, oliy va professional ta'lim tizimida o'quvchi, talabalar hamda turli nozologiyasi bor shaxslar bilan ishlash orqali respublikada ommaviy sportni rivojlantirishga erishilgan (1-rasmga qarang).

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallalarda yoshlarni ommaviy sportga jalb qilishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida” 2022-yil 11-apreldagi PQ–201-sonli alohida qarori qabul qilingan va ushbu yo'nalishda yaxlit tizim yaratilgan. Yaratilgan tizim natijasida, ko'plab ijobiy o'zgarishlar kuzatilgan. Jumladan, hududlarda yoshlarni ommaviy sportga keng jalb qilish maqsadida sport maktablarining yo'riqchi-uslubchi shtat birliklari hisobiga sport maktabi direktorining ommaviy sportni rivojlantirish va seleksiya bo'yicha o'rinbosari lavozimini joriy etilgan.

Sport maktablari – tuman va shaharlarda ommaviy va professional sportni rivojlantirish hamda sport siyosatini yuritishga mas'ulligi hamda uning faoliyati jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, sport bilan muntazam shug'ullanuvchilar sonini bosqichma-bosqich oshirib borishga yo'naltirilishi belgilangan. Ommaviy sport musobaqalarini keng qamrovda tashkil etish va o'tkazish uchun sport maktabi trenerlari, jismoniy tarbiya o'qituvchilari va yoshlar yetakchilari o'rtasida hamkorlik tizimi yo'lga qo'yilib, ular har bir mahallaga biriktirilgan.



1-rasm. Besh tashabbus Olimpiadasi ommaviy sport musobaqalar tizimi

Eng quyi bo'g'indagi mas'ullarni rag'batlantirib borish maqsadida "Besh tashabbus olimpiadasi" sport musobaqalari davomida g'olib va sovrindorlarni tayyorlagan umumiy o'rta ta'lim maktablarining jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari va sport-ta'lim muassasalarining trenerlari malaka attestatsiyasiga jalb etilmasdan ularga tegishli malaka toifalarini to'g'ridan-to'g'ri berish amaliyoti yo'lga qo'yilgan; mahalladan boshlab, "besh bosqichli" (ko'chalararo, mahallalararo, sektorlararo, tumanlararo, hududlararo) ommaviy sport musobaqalarini o'tkazish tizimi bo'yicha dastur qabul qilingan; respublika bo'yicha 6 ta yo'nalishda (mahalla, maktab, professional, oliy ta'lim, maktab xodimlari, idora va tashkilotlar, adaptiv sport) musobaqalar o'tkazish yo'lga qo'yilgan.

Jismoniy tayyorgarlik darajasi sport sinovlari orqali umumta'lim maktablari, oliy va professional ta'lim muassasalarida o'quvchi-talabalar jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash tizimini joriy etish hisobiga ularning jismoniy faolligi oshirilgan. Buning uchun, 7 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan aholiga mos keladigan mezonlar asosida ixtiyoriy va maxsus yo'nalishlarda sport sinovlari dasturi ishlab chiqilgan. Sport sinovlarini muvaffaqiyatli topshirgan aholi vakillarini rag'batlantirish maqsadida sinovlarining ixtiyoriy (faxriy yorliqlar va esdalik sovg'alari bilan) va maxsus (I, II va III darajali "Jismoniy tayyorgarlik darajasi" ko'krak nishonlari va qimmatbaho sovg'alar bilan) talablarini bajargan g'olib va sovrindorlarni rag'batlantirish belgilangan (2-ramga qarang).

Sport sinovlarini qabul qilishda ishtirokchilarni ro'yxatga olish uchun my.sport.uz platformasi ishga tushirilib, sport sinovlarini qabul qilishning alohida yo'nalish va vazifalari belgilangan.


Birinchi, mart-aprel oylarida umumta'lim maktablarining 7-17 yoshdagi o'quvchilaridan sport sinovlari qabul qilinishi yo'lga qo'yildi. Bu ishlarga, jismoniy tarbiya fani hamda yoshlarni chaqiriqqa qadar tayyorlash bo'yicha o'qituvchilar mas'ul bo'ladi. Sport maktablari direktorlarining ommaviy sportni rivojlantirish va seleksiya bo'yicha o'rinbosari hamda seleksioner-trenerlar uslubiy ko'maklashishiga kelishilgan.

Ikkinchi, umumta'lim maktablarining 13-17 yoshdagi 101 ming nafar o'quvchilaridan aprel oyining uchinchi o'n kunligida ochiq va shaffof ko'rinishda sport maktablari bazasida maxsus sport sinovlari qabul qilinishi yo'lga qo'yilgan. Bu ishlarga, sport maktablari direktorlarining ommaviy sportni rivojlantirish va seleksiya bo'yicha o'rinbosari hamda seleksioner-trenerlar va jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari hamkorlikda mas'ul etib belgilangan.

Uchinchi, oliy ta'lim muassasalarining jami 222 ming, shundan 5 ming nafar talabalaridan maxsus talablar bo'yicha may-iyun oylarida sport sinovlari qabul qilinishi muntazam o'tkazib kelinmoqda.

Hududiy sport boshqarmalarining Ommaviy va etno sport turlarini rivojlantirish hamda sport normativlarini o'tkazish bo'limi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar hududiy boshqarmalari hamda oliy ta'lim muassasasining yoshlar bilan ishlashga mas'ul prorektori hamda Ixtisoslashtirilgan sport maktablari birgalikda mas'ul bo'lgan.

To'rtinchi, sport maktablari bazasida 30-70 yoshdagi 191 ming nafar mahalla aholisidan avgust-sentabr oylarida sport sinovlari qabul qilindi. Bu ishlarga, sport maktablari, Mahallalar uyushmasi hududiy bo'limlari, Nuroniy jamg'armasi bo'limlari, mahalla yettiligi hamkorlikda mas'ul bo'lgan.



2-rasm. Aholini jismoniy tayyorgarlik darajasini baholashni tashkil etish va o‘tkazish tizimi

Beshinchi, 542 ta davlat tashkilot va idoralarining 11 ming nafar xodimlaridan noyabr oyida sport sinovlari qabul qilindi. Bunga, tuman (shahar)lar davlat tashkilot va idoralarining sport targ'ibotchilari, Kasaba uyushmalari va Savdo-sanoat palatasi tuman bo'limlari hamda sport maktablari direktorlarining ommaviy sportni rivojlantirish va seleksiya bo'yicha o'rinbosari boshchiligida seleksioner-trenerlar mas'ul bo'lishi belgilangan.

Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarida ijodiy imtihonlarni adolatli hamda shaffof tashkil qilishda elektron baholash tizimini joriy etish, sport-ta'lim muassasalariga O'zbekiston chempionati va kuboklarida g'olib va sovrindor bo'lgan iqtidorli sportchi-o'quvchilarni tanlab olish hisobiga milliy terma jamoalarga sportchi yetkazib berish va zaxirasini yaratish metodikasi takomillashtirilgan. Buning uchun quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilgan:


Olimpiya va paralimpiya zaxiralari kollejlari negizida Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari tashkil qilindi. Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarida o'qish jarayoni 2 ta bosqichda yo'lga qo'yildi: birinchi bosqichda 5 – 11-sinflar uchun Olimpiya maktablari (hududiy hokimlar rahbarlik qiladi), ikkinchi bosqichda 1-2-kurslar uchun Olimpiya va Paralimpiya kollejlari faoliyat ko'rsatadi.

Markazlar orqali milliy terma jamoalarga zaxira tayyorlash 2 yilga yoshartirildi (oldin 7 sinfdan bo'lgan) va har bir sportchi bilan individual ishlash tizimiga o'tkazildi. Buning uchun, Markaz o'quvchilari kontingenti amaldagiga nisbatan 150 nafargacha maqbullashtirildi. Markazlarda rivojlantiriladigan sport turlari hududlarning o'ziga xos xususiyatlari va yoshlarning qiziqishidan kelib chiqib, bazaviy va ixtisoslashgan yo'nalishlarda belgilab olingan (3-rasmga qarang).

Markazlar kontingentini maqbullashtirish hisobiga iqtisod qilingan qariyb 40 milliard so'm mablag' sport trenerlari ish haqini 35 foizga ko'paytirish, sportchilarning sutkalik oziq ovqat xarajatlarini moliyalashtirishni 35 ming so'mdan 65-70 ming so'mgacha oshirishga yo'naltirildi. Sportchilarning sutkalik oziq-ovqat normasi 26 turdagi 6 693 kaloriyaga ega mahsulotlar bilan kengaytirildi.

Markazga o'quvchi qabul qilishdagi ijodiy imtihon jarayonlari raqamlashtirilib, real vaqt rejimida baholash yo'lga qo'yildi. Shu bilan birga, sportchi-o'quvchilarni mashg'ulotlarda ishtirokini monitoring qilish bo'yicha "Face ID" tizimi ishga tushirildi. Sportchilarni tayyorlashda yiliga ikki marta ularni erishgan sport natijalariga qarab attestatsiyadan o'tkazish tizimi joriy qilindi va o'qishdan chetlatilgan sportchilar o'rnini O'zbekiston chempionati g'olib va sovrindorlaridan butlash amaliyoti yo'lga qo'yildi. Terma jamoalarga 31 nafar xorijiy trenerlar jalb qilinib, Olimpiya va paralimpiya markazlariga birlashtirildi. Nogironligi bo'lgan o'quvchilar uchun 10 %gacha kvota ajratilib, ilk bor Paralimpiya sportchilarini professional tayyorlash tizimi yo'lga qo'yildi.

Bugungi kunda 383 nafar bunday sportchilar Markazlarda tayyorlanmoqda. Buning natijasida, so'nggi uch yilda Olimpiya va paralimpiya markazlarida 83 milliard so'mlik qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirilib, barcha zarur infratuzilma yaratib berilgan. Milliy terma jamoalarga sportchi yetkazib berish ko'rsatkichi 15 % ga o'sgan.



3-rasm. Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari tizimi

Sport-ta'lim muassasalari faoliyatini raqamlashtirilishi natijasida "ERP-Sport" tizimi orqali sport guruhlarini optimal variantlarda shakllantirish, sohaga ajratilayotgan budget mablag'laridan maqsadli foydalanish, sportda boshqaruv jarayonini optimallashtirish, xususiy sektor bilan hamkorlik orqali sport infratuzilmasi va sportchilar tayyorlash tizimi rivojlantirilgan. Buning uchun, avvalo, vazirlik huzurida Raqamlashtirish va sertifikatlash markazi tashkil etilgan.


Sport sohasida oid barcha yo'nalishlarni qamrab oladigan 24 ta axborot tizimidan iborat "ERP-Sport" yagona elektron boshqaruv tizimi ishga tushirilgan va har bir ko'rsatkich va ma'lumotni tahlil qilib, unga obyektiv baho berish imkoniyati yaratilgan.

Barcha darajadagi sport ta'lim muassasalarida sportchi-o'quvchilar qabuli, ularning mashg'ulotlarga qatnovi, mashg'ulotlar jadvali va trenerlar jurnali, sport natijalari, inventarlar hisobi, ta'lim muassasasining moliya-xo'jalik faoliyati raqamlashtirilgan. Raqamlashtirilgan tizim imkoniyatlari asosida sport maktablari faoliyatini har tomonlama chuqur tahlil qilish asosida ular zimmasida faqatgina yoshlarni sport bilan doimiy shug'ullantirish va professional sportga yo'naltirish emas, balki yoshlarni sportga qiziqtirish, sportning ommaviyligini oshirish va bunga yoshlarni jalb etish kabi qo'shimcha vazifalar yuklangan (4-rasmga qarang).

Shuningdek, Sport vazirligi mablag'lari hisobidan barpo etiladigan sport obyektlari va inshootlarining kamida 30 %ni elektron tizim orqali ushbu hududda yashovchi aholi tomonidan ovoz berish yo'li bilan ularning qiziqishiga qarab aniqlash tizimi yo'lga qo'yilib, "Tashabbusli sport" elektron platformasi ishga tushirilgan. Bu orqali joylarda aholining sportga qiziqishini oshirish va sport infratuzilmasini rivojlantirishga erishilib, respublikada sport bilan muntazam shug'ullanuvchi yoshlar ulushini 2022-yildagi 310 mingdan 1 millionga va ommaviy sport bilan shug'ullanuvchi yoshlarni 15 millionga yetkazish strategik maqsad sifatida belgilangan.


Bugungi kunga qadar mamlakatimizda ham sportning boshlang'ich bo'g'ini bo'lgan 254 ta davlat sport maktablari faoliyatini moliyalashtirish faqatgina mahalliy budget mablag'lariga bog'lanib qolgan. Bu holat tuman va shaharlarda sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining yillik kalendar rejasida nazarda tutilgan ommaviy sport tadbirlarini to'liq qamrab olish va sport maktabi o'quvchilari ishtirok etishi mumkin bo'lgan barcha sport musobaqalarida ham sportchi-o'quvchilar ishtirokini ta'minlash imkoniyatini bermaydi.

Mamlakatimizda ham sport ta'lim muassasalarini moliyalashtirishda xususiy sektor hamkorligini yaratish, ayniqsa birinchi navbatda talab yuqori bo'lgan sport inshootlariga ega sport ta'lim muassasalarida o'zini o'zi moliyalashtirish va davlat xususiy sheriklik tizimini rivojlantirish borasida harakatlar boshlandi. Natijada, sport maktablarida sport bilan shug'ulanuvchi yoshlar qamrovi 1,7 barobarga oshgan hamda terma jamoalarga Olimpiya va Paralimpiya sport turlaridan sportchi yetkazib berish 2021-yilga nisbatan 2025-yilda 42 %ga o'sgan, shuningdek yiliga o'rtacha sport infratuzilmasiga ajratilayotgan mablag'larning 10 % yoki 2025 yil uchun nazarda tutilgan mablag'larning qariyb 30 % aynan xususiy investitsiyalar orqali o'zlashtirilishiga erishilgan.



4-rasm. Sport sohasini raqamlashtirish orqali ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash va natijadorlikka erishish tizimi

Dissertatsiyaning “**Sport ta’lim muassasalarining yangi tizimini joriy etish samaradorligini aniqlash**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida O‘zbekistonda sport ta’lim muassasalarining yangi tizimini joriy etish orqali samaradorlikka erishish yo‘llari, yuqori malakali sportchilar tayyorgarligini ta’minlashda vakolatli organlarning o‘rni: modernizatsiya natijalari, sportchilar tayyorlashning yangi metodologiyasi: zamonaviy tizim modernizatsiyasi asosida pedagogik kuzatuv natijalari keltirilgan. Jumladan, aholining ommaviy sportdagi qamrovini oshirish va seleksiyaga baza yaratish maqsadida eng ommabop va keng tarqalgan, alohida infratuzilma yaratish talab etilmaydigan 13 ta sport turi qamrab olingan, ishtirokchilarni ro‘yxatga olish uchun “5tashabbus.uz” elektron platforma ishga tushirilgan, har bir mahallaga ommaviy sport musobaqalarini o‘tkazish uchun futbol, voleybol, basketbol, gandbol to‘plari va gimnastika xalqasi yetkazib berish tizimi yo‘lga qo‘yilgan, respublika final bosqichi turli hududlarda o‘tkazilib, ishtirokchilarning transport, yashash va ovqatlanish xarajatlari markazlashgan tarzda to‘lab berilmoqda, g‘olib sovrindorlarni (tuman-shahar bosqichida – futbolka, shortik, kepka, hududiy bosqichida – sport ekipirovkasi, respublika bosqichida – noutbuk) rag‘batlantirish tizimi yaratilgan (5-rasmga qarang).



5-rasm. “Besh bosqichli” ommaviy sport musobaqalari tizimida qamrab olingan yoshlar va iqtidorli sportchi-yoshlarni sport maktablariga seleksiya qilish ko‘rsatkichlari

Ushbu yo‘nalishda Sport vazirligining eng katta hamkori Yoshlar ishlari agentligi bilan birga “Mahalla yettiligi” imkoniyatlaridan foydalanib, “Besh tashabbus olimpiadasi” ommaviy sport musobaqalari tashkil etilmoqda. Natijada, birgina 2024-yilning o‘zida 13 ta sport turidan 7 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan 10 million yoshlar elektron ro‘yxatdan o‘tib, ommaviy sport musobaqalarida ishtirok etgan.

E’tiborlisi, har bir mahallada 1 ta sport turidan o‘rtacha 40-45 nafar yoshlar ishtirok etmoqda. Ya’ni, bu ko‘rsatkich yildan yilga o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lmoqda. Xususan, 2022-yilda 6,1 million, 2023-yilda 6,4 million, 2024-yilda 10,1 million aholi, ayniqsa yoshlar qamrab olingan. Ommaviy sport musobaqalari orqali yiliga 25-30 ming nafar iqtidorli yoshlar sport maktablariga seleksiya qilinib, sport bilan muntazam shug‘ullanishga yo‘naltirilmoqda.

